

25-Mart, 2025-yil

EKOLOGIK XAVFSIZ QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH IMKONIYATLARI

D.M. Ahmedova

Farg‘ona Davlat universiteti, dotsenti

Rezume: *Mazkur maqolada aholini ekologik toza, ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashda qishloq xo’jaligida ekologik sof mahsulot yetishtirish jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik toza mahsulotlar, mineral o‘g‘itlar, organik o‘g‘itlar, biokonversiya, tuproq unumdoorligi, ekologik dehqonchilik tabiatni muhofaza qilish.*

Abstract: *This article highlights the aspects of the production of environmentally friendly products in agriculture while providing the population with environmentally friendly, environmentally friendly food.*

Key words: *environmentally friendly products, mineral fertilizers, organic fertilizers, bioconversion, soil fertility, ecological agriculture, nature conservation.*

Keyingi yillarda dunyo miqyosida aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash eng asosiy global muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bu borada keyingi o‘n yillarda bir qator ijobjiy natijalarga erishilgan bo‘lsada, hozir ham yer yuzida to‘qqiz yuz milliondan ortiq aholi ochlikda kun kechirmoqda. Bunga yer yuzining bir qator mintaqalaridagi noqulay tabiiy-iqlim sharoiti, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari kabi tez-tez yuz berayotgan tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari taqsimotidagi ba’zi nomutanosibliklar, turli hududlarda davom etayotgan urushlar, har xil iqtisodiy–ijtimoiy muammolar va boshqa shu kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Sayyoramizda aholi sonining keskin ortishi tufayli ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash dunyoviy muammolar qatoridadir. Oziq-ovqat mahsulotlarining yetarlicha ishlab chiqarish uchun qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish talab etiladi.

Ma’lumki, mineral o‘g‘itlarni qo‘llash, gen injeneriyasi texnologiyalari bilan yaratilgan transgen o‘simgilik va hayvonlardan foydalanish qishloq xo‘jaligida mahsulot miqdorini oshiradi.

Ammo mineral o‘g‘itlarni ekinlar hosildorligini oshirishda qo‘llanilishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, azotli o‘g‘itlarni meyordan ortiqcha qo‘llanilishi tuproq tarkibidagi gumusni parchalanishini tezlashtiradi, buning oqibatida tuproqning meliorativ holati pasayadi. Tuproqda, yer osti suvlarda, yetishtirilgan mahsulot tarkibida nitratlarning ortishiga sabab bo‘ladi. Bu esa inson organizmida zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Fosforli o‘g‘itlar tarkibida ko‘p miqdorda og‘ir metallar, radioaktiv elementlar, fтор kabi bir qancha moddalarni saqlaydi. Nitratlar, og‘ir metallar, radioaktiv elementlar va fтор miqdorining mahsulotlar tarkibida ortishi ushbu mahsulotni iste’mol qilgan odam va

25-Mart, 2025-yil

hayvonlar salomatligiga jiddiy putur yetadi. Bular kontserogen xususiyatga ega bo‘lib, organizmda to‘planib turli darajadagi shish kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Ekologik toza mahsulot organik mahsulot deb yuritiladi. Olimlar ekologik toza mahsulot inson sog‘lig‘iga zarar yetkazmasligi, kelajak avlod salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi va yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo‘lishini asoslab berishgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, ekologik toza mahsulotlar iste’mol qilinganda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshining ortishi, aholi orasida har xil kasalliklar tarqalish darajasi hamda bolalar o‘limining kamayishi va boshqa muhim ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilgan.

Ekologik toza mahsulot yetishtiriladigan yerlarda avvalo 3 yil davomida tozalash tadbirlari o‘tkazilishi talab etiladi. Shundan so‘nggina yer tekshirilib, organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun sertifikat beriladi.

Mahsulot yetishtirishda turli kimyoviy vositalar, mineral o‘g‘itlardan foydalanish va genetik modifikatsiyalangan ekin navlarini ekish qat’yan taqiqlanadi. Bunda asosiy agrotexnik tadbirlar qo‘l mehnati evaziga bajariladi. Shunday usulda yetishtirilgan mahsulotlar organik yoki ekologik toza mahsulot nomini oladi va tarkibida 95 foizgacha organik modda bo‘ladi.

Mamlakatimizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash, ekologik toza mahsulot yetishtirish va atrof-muhitni sog‘lomlashtirish doimiy e’tiborda. Yetishtirilayotgan mevasabzavotlarga jahon bozorida, xusan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlarda talab ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017- 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. Unda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish vazifalari belgilangani buning yorqin isbotidir

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini hozirgi sanoati kuchli rivojlangan davrda qanday qilib mutlaqo tabiiy qilib yetishtirish mumkin degan savolga ekologik yoki biologik dehqonchilik javob beradi.

Ekologik yoki biologik dehqonchilik deb ekologik xavfsiz, yuqori sifatli va ta’mga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga aytildi. Ekologik jihatdan toza mahsulot yetishtirilganda hosildorlik past, lekin sifati yuqori bo‘ladi. Aholining turmush darajasi ortgan sayin biologik mahsulotlarga talab ham ortib boradi.

Ekologik dehqonchilikning asosiy qonun-qoidalardan biri mumkin qadar yopiq moddalar aylanish tizimini ta’minalashdir. Bunda o‘simplikshunoslik va chorvachilik sohalari bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. O‘simplik mahsulotlarining bir qismi hayvonlar uchun ozuqa bo‘lib xizmat qilsa, chorvachilik chiqindisi hisoblangan go‘ng o‘simplik uchun ozuqa moddasi vazifasini o‘taydi. Ekologik dehqonchilik shu bugungi kundagi tabiiy resurslarni kelajak avlodlarga sof holatda yetkazib berishga yordam beradi.

Ekologik dehqonchilikda mineral o‘g‘itlar o‘rniga kompost, ko‘kat o‘g‘itlar, go‘ng qo‘llab, almashlab ekish tizimiga rioya qilish, ko‘p miqdorda biologik azot to‘playdigan

25-Mart, 2025-yil

dukkakli ekinlarni ekish bilan tuproq unumdorligi tabiiy yo‘l bilan oshiriladi. Shuningdek bugungi kunda o‘simpliklar, qishloq xo‘jalik chiqindilari, shahar chiqindilari bo‘lgan biomassadan foydalanilgan holda ekologik toza, doimiy qayta tiklanadigan energiya olinmoqda. Chiqindilarni biokonversiya jarayoni, energetik muammoni hal qilish bilan birga qishloq xo‘jaligida ikkita muhim masalani hal qiladi. Birinchidan, achigan go‘ng odatdagি go‘ngga qaraganda qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini 10-20 % oshiradi. Ikkinchidan, chiqindilar achigan vaqtda go‘ng tarkibida ko‘p miqdorda bo‘lgan begona o‘tlarning urug‘lari, har xil mikroblarning birikmalari, gelmintlari va yoqimsiz hidlar yo‘qotiladi.

O‘simpliklarni kasalantirmaslik ekologik dehqonchilikning asosiy maqsadidir. Buning uchun o‘simpliklarning kuchli, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarini tanlab olish, kasallik ko‘payishi mumkin bo‘lgan holatlarda biologik moddalardan tayyorlangan o‘simpliklarni himoya qilish vositalaridan foydalaniladi. Ekologik toza, sof mahsulot olishda mikrobiologik o‘g‘itni qo‘llash, xo‘jalik chiqindilarini sanoatda qayta ishlashdan keyin qo‘llash, chorvachilik chiqindilarini kompost qilish texnologiyasini ishlab chiqish, ekologik toza organik o‘g‘it olish, ularning ekin maydonida foydalanish bilan tuproqning biologik xususiyatlarini tiklash, hosildorligini oshirish, yuqori va ekologik sof, xavfsiz mahsulot olish garovidir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik dehqonchilik tabiatni asrash, qishloq xo‘jaligini tabiat qonunlari bilan uyg‘un tarzda yuritish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholini yuqori sifat va tabiiy ta’mga ega bo‘lgan mahsulotlar bilan ta’minlash hamda tabiiy boyliklarni kelajak avlodlarga butunligicha yetkazib berish imkonini beradi.

Mamlakatimiz sharoitida ekologik toza mahsulotlar yetishtirish uchun barcha tabiiy sharoitlar mavjud. Zero, yuqorida qayd etilganidek, ekologik dehqonchilikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, potensial imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishish garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.

2.Mahammadovna, A. D. (2023). ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQINDILAR MUAMMOSI VA UNING YECHIMI. Journal of new century innovations, 37(1), 194-198.

3.Ахмедова, Д. М. (2023). ВЗАИМОВЛИЯНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ В ПОЧВЕННЫХ СРЕДАХ У ХЛОПЧАТНИКА. World of Science, 6(5), 6-12.

4.Ahmedova, D. (2023). EKOLOGIK DEHQONCHILIK VA UNING ISTIQBOLI. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 133-136.

5.Ahmedova, D., & Turdimatova, H. S. (2022). PROBLEMS OF PRODUCTION OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY PRODUCTS. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(12), 12-16.

25-Mart, 2025-yil

6.Ахмедова, Д. М. (2022). ГЕНОМНЫЙ АНАЛИЗ АЛЛОГЕКСАПЛОИДНЫХ
ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. International scientific journal of Biruni, 1(2), 8-15.

7.Akhmedova, D., & Nazarov, M. (2019). Influence of environmental factors on bio-
ecological features and its productivity”.

8.Ахмедова, Д. М. (2022). ГЕНОМНЫЙ АНАЛИЗ АЛЛОГЕКСАПЛОИДНЫХ
ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. International scientific journal of Biruni, 1(2), 8-15.